XALQ DEPUTATLARI MUZRABOT TUMANI KENGASHINING QARORI

Muzrabot tumani, Onadiyor ko‘chasi 1-uy. 191300, tel.: (+99876) 349-10-67

2022 - yil 17 - iyun VI-44-93-8-115-K/22 Muzrabot tuman hokimligi

Tumandagi qabristonlarning nomlarini o‘zgartirish va tasdiqlash to‘g‘risida

“Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida ”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik ob’yektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida ”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Geografik ob’yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Geografik ob’yektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 14-apreldagi 01-14-518-son yig‘ilish bayoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda nomlari o‘zgarayotgan hamda tasdiqlanayotgan qabristonlarning ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (Z.Qodirov), tuman qurilish bo‘limi (B.Norkeldiyev), Davlat kadastrlar palatasi Muzrabot tumani filiali (Sh.Muradov) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari o‘zgartirilgan hamda tasdiqlangan qobristonlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni

amalga oshirsin.

4. Tuman qurilish bo‘limi (B.Norkeldiyev) hududlarda nomlari o‘zgartirilgan geografik ob’yektlarga yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qarorni tuman hokimligi axborot xizmati (J.Abdurasulov), “Muzrabot” gazetasi tahririyati (A.Yuldashev)lar tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish hamda ommoviy ahborot vositalarida keng yoritish vazifalari yuklatilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Berdiyeva), xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (T.Tangirov) zimmalariga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **E.J.Alimov**

Xalq deputatlari Muzrabot tuman
Kengashining
2022 yil 17 iyundagi
VI-44-93-8-115-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tumandagi nomsiz Qabristonlarni nomlash haqida

№	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif
1	2	3	4	5
1.	Qabriston	Dehqonobod MFY	Nomsiz	Hojibobo
2.	Qabriston	Madaniyat MFY	Nomsiz	Birodarlik
3.	Qabriston	Muzrabot darvoza MFY	Nomsiz	Qodirhoji
4	Qabriston	Obodturmush MFY	Nomsiz	Cho‘ponota
5	Qabriston	Fayziobod MFY	Nomsiz	Fayziobod
6	Qabriston	Chegarachi MFY	Nomsiz	Davlatbobo
7	Qabriston	Gulobod MFY	Nomsiz	Qulbobo
8	Qabriston	Yurtim jamoli MFY	Nomsiz	Bibirobiya
9	Qabriston	Yo‘lchi MFY	Nomsiz	Xo‘ja Anqo
10	Qabriston	Yo‘lchi MFY	Nomsiz	Hoji Abdurahmon
11	Qabriston	Mehnatobod MFY	Nomsiz	Mavlonota
12	Qabriston	Darband MFY	Nomsiz	G‘oyibota
13	Qabriston	Buyuk ipak yo'li MFY	Nomsiz	Taskent